

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 2580,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari 148,7 %ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1933,0 ming so'mga yetdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2580,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (36,9 %), transport xizmatlari (18,6 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,5 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar tarkibi, %




2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2580,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,6 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2580,4	114,6
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	168,1	112,6
moliyaviy xizmatlar	371,1	148,7
transport xizmatlari	479,3	104,3
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	460,3	103,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	79,4	108,6
savdo xizmatlari	952,7	114,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	69,7	102,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	109,8	115,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	44,7	127,7
ijara xizmatlari	64,1	119,4
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	79,4	105,1
shaxsiy xizmatlar	77,2	102,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	21,5	120,5
boshqa xizmatlar	63,1	105,1

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari (952,7 mlrd. so'm), transport xizmatlari (479,3 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (371,1 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (168,1 mlrd. so'm), ta'lif sohasidagi xizmatlar (109,8 mlrd. so'm) oshishi kuzatilmogda.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (21,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (148,7 %), sog'linqni saqlash sohasidagi xizmatlar (127,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (120,5 %), Ijara xizmatlari (119,4 %), ta'lrim sohasidagi xizmatlar (115,2 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,6 %), shaxsiy xizmatlar (102,8 %), transport xizmatlar (104,3 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Hozirgi kunda viloyatda ulgurji va birja savdo korxonalari faoliyati uchun zarur qonunchilik asoslari yaratilgan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmog'i faol rivojlanmoqda. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 952,7 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 36,9 % ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida
savdo xizmatlari tarkibi, %**



- Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosи, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qо'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 80,0 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,7 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosи, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qо'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,3 % ni tashkil qiladi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 79,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan o'sish 108,6 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,1 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

**Yashash bo'yicha
xizmatlar
10,0 %**

**Oziq-ovqat va
ichimliklar bilan
ta'minlash bo'yicha
xizmatlar
90,0 %**

**Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar
100,0 %**

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 90,0 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,0 % ga to'g'ri keladi.